

## QISHLOQ XOJALIK KORXONALARINI KREDITLASH

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
O`qituvchi: **Abduvahobov Shaxzod**  
Talaba: **Mamurov Shuxrat**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Bank ishi asoslari fanining Qishloq xo`jalik korxonalarini kreditlash mavzusini rivojlantirishga bag`ishlangan. Shuningdek, qishloq xo`jalik korxonalarinig faoliyati, uni kreditlash haqida koplab malumotlar olib, uni amaliyotda bajara olishni o`rganish ham ko`zda tutiladi. Nafaqat yuqoridagi malumotlarni, balki kreditlash bilan bog`liq qo`shimcha munosabatlarni ham o`rganish ham maqsadga muvofiq bo`ladi.

**Kalit so`zlar:** Qishloq xo`jaligi, agrar munosabatlar, intensive texnologiyalar, kreditlash, agrotexnologiya.

**Аннотация:** Данная статья посвящена развитию темы кредитования сельскохозяйственных предприятий в науке об основах банковского дела. Также планируется получить много информации о деятельности сельхозпредприятий, их кредитовании и научиться делать это на практике. Целесообразно было бы изучить не только вышеуказанную информацию, но и дополнительные отношения, связанные с кредитованием.

**Ключевые слова:** Сельское хозяйство, аграрные отношения, интенсивные технологии, кредитование, агротехнологии.

**Abstract:** This article is devoted to the development of the topic of lending to agricultural enterprises in the science of banking basics. It is also planned to get a lot of information about the activities of agricultural enterprises, their lending, and learn how to do it in practice. It would be appropriate to study not only the above information, but also additional relationships related to lending.

**Key words:** Agriculture, agrarian relations, intensive technologies, lending, agrotechnology.

### KIRISH

Shaxsiy yordamchi xo`jaliklarga qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun mikrokreditlar miqdori eng kam ish haqining 100 baravarigachani tashkil etadi.

Ushbu mikrokreditlar shartnoma asosida qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz:

- mevali daraxtlar va uzum ko`chatlari sotib olish uchun bir yillik imtiyozli davr bilan 3 yilgacha bo`lgan muddatga;
- urug`liklar, mineral o`g`itlar va o`simgiliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarini sotib olish, ixcham issiqxonalar tashkil etish hamda parrandachilik va

asalarichilikni rivojlantirish uchun 6 oylik imtiyozli davr bilan 2 yilgacha bo‘lgan muddatga beriladi;

- Mikrokreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi darajasidan yuqori bo‘lmagan miqdorda belgilanadi.

Mikrokredit olish uchun shaxsiy yordamchi xo‘jalik yurituvchi jismoniy shaxs tomonidan tijorat bankiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- mikrokredit berish so‘ralgan ariza;
- mahalla, qishloq, ovul fuqarolar yig‘ini Kengashi raisi tomonidan imzolangan, belgilangan tartibda berilgan sanasi va raqami qayd etilgan hamda gerbli muhr bilan tasdiqlangan tavsiyanoma;
- физическое лицо, ведущее личное подсобное хозяйство, при представлении документов, предъявляет документ, удостоверяющий его личность, а также представляет ксерокопию данного документа;
- mikrokredit oluvchi shaxsiy yordamchi xo‘jalik yurituvchi jismoniy shaxsda tomorqa uchastkasi mavjudligi hamda uning maydoni ko‘rsatilgan ma’lumotnoma.

Qarz oluvchilar mikrokreditlar qaytarilishining ta’mnoti sifatida tijorat banki filialiga quyidagi ta’mot turlaridan birini taqdim etishlari lozim:

- mol-mulk garovi;
- bank yoki sug‘urta kompaniyasining kafolati;
- uchinchi shaxs kafilligi;
- qarz oluvchi tomonidan olingan kreditni qaytarmaslik xatarining bank foydasiga sug‘urta qilinganligi to‘g‘risidagi sug‘urta polisi.

Tijorat banklari tomonidan ushbu kreditlar qishloq xo‘jaligi korxonalariga muddatlilik, to‘lovilik, ta’minlanganlik hamda maqsadli foydalanish shartlarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g‘alla va paxta xomashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlarida beriladi.

Kreditlar davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xomashyosi va g‘alla qiymatining 50 foizigacha miqdorida beriladi.

Bunda, kreditlar agrotexnik tadbirlar muddatidan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda ajratiladi:

paxta xomashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun hosil yetishtirilayotgan yilning 1-yanvariga qadar paxta xom-ashyosi qiymatining 5 foizigacha, 1-apreliga qadar 20 foizigacha, 1-iyulga qadar 35 foizigacha va 1-sentabrga qadar 50 foizgacha;

g‘alla yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun hosil yetishtirilayotgan yilning 1-yanvariga qadar g‘alla qiymatining 20 foizigacha, 1-aprelga qadar 30 foizigacha va 1-iyunga qadar 50 foizgacha.

Kreditlar tegishli qishloq xo‘jalik mahsuloti bo‘yicha qishloq xo‘jalik korxonalari bilan yakuniy hisob-kitoblar yakunlanguncha, lekin g‘alla yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo‘yicha 12 oydan va paxta xomashyosi yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo‘yicha 18 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz beriladi.

Kredit qishloq xo‘jaligi korxonasiga uning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob raqami ochgan va unga xizmat ko‘rsatayotgan bank tomonidan beriladi. Ushbu kreditlarni ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisob raqami ochilgan bank tomonidan berilishiga ruxsat berilmaydi.

Kreditlar va unga hisoblangan foizlar qishloq xo‘jaligi korxonalarining maxsus 23210 (23220) hisob raqamlariga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalariga sotishdan tushgan mablag‘lar hisobidan, birinchi navbatda bank tomonidan memorial orderlar bilan undiriladi.

Kredit shartnomasi asosida berilgan kreditlarni qaytarish muddati yetib kelganda, ularni undirib olish uchun, qarzdor-qishloq xo‘jaligi korxonasining mablag‘i yetarli bo‘lmaganda, tijorat banklari sug‘urta polisi asosida “O‘zagrosug‘urta” DASK bo‘limlariga sug‘urta hodisasi ro‘y bergenligi to‘g‘risida murojaat qiladilar.

Sug‘urta tovoni, tijorat banklari va “O‘zagrosug‘urta” DASK bo‘limlari o‘rtasida tuzilgan Bosh polis asosida tijorat banklariga 5 kun muddatda to‘lab beriladi.

Topshirilgan mahsulot uchun yakuniy hisob-kitoblarda tayyorlov korxonalari tomonidan qishloq xo‘jaligi korxonalariga yetkazib berilgan moddiy boyliklar qiymati va avvalgi yillar qarzlarini chegirib qolishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ushbu moddiy boyliklar uchun hisob-kitoblar va qarzlarni qaytarish ajratilgan bank kreditlari to‘liq to‘langach, qishloq xo‘jalik korxonasining to‘lov topshiriqnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonasi tomonidan davlat ehtiyojlari uchun yetkazib beriladigan mahsulot hajmining qiymati “O‘zpaxtasanoat” uyushmasi va “O‘zdonmahsulot” AK korxonalari (bundan keyingi matnlarda — tayyorlov korxonalari) bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalaridan kelib chiqqan holda o‘rnataladi.

Kredit miqdorini aniqlash uchun amaldagi xarid narxlari asos qilib olinadi. Yangi xarid narxlari tasdiqlangach, kredit miqdori kredit oluvchining talabiga ko‘ra qayta hisoblab chiqiladi.

**Xulosa:** Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizni qishloq xojaligisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Uni kreditlash va uning faoliyatida mikrokreditlardan foydalanish juda katta ahamiyat kasb etadi.

2023—2024-yillarda qishloq xo‘jaligi texnikasi xaridini moliyalashtirish uchun jami 2,6 trillion so‘m yo‘naltiriladi, shundan:

- Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilish uchun tijorat banklariga joylashtirilgan 100 mln AQSH dollaridan 2022-yilda o‘zlashtirilmasdan qolgan 670 milliard so‘m miqdoridagi mablag‘ texnika xaridi uchun 10 foiz stavkada 10 yilga kredit ajratish uchun;
- 800 milliard so‘m (70 million AQSH dollar) — xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilish uchun lizing tashkilotlariga joylashtirish hisobiga;
- 1,1 trillion so‘m (100 million AQSH dollar) — xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilish uchun tijorat banklariga joylashtirish hisobiga.

Bu albatta 2023-24-yil ko`rsatgichlari. Ushbu maqolaning maqsadi vaqt o`tib borgan sari bu sohani yanada rivojlantirishdir. Qisqa qilib aytganda, xulosa shuki qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda kredit munosabatlari juda muhim ahamiyat kasb etishini yuqoriga ko`tarish.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдувахобов Шахзод Холмўмин ўғли, Possibilities of Increasing the Activity of Banks in the Securities Market, Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP), Volume 02 Issue: 03/2023 ISSN: 2751-7551 (159-162)
2. Абдувахобов Шахзод Холмўмин ўғли, Analysis of Existing Management Mechanisms and Assessment Methods of The Bank’s General Financial Risk, Journal of Intellectual Property and Human Rights, Volume:02 Issue: 05/ May-2023, ISSN:2720-6882 (227-231)
3. Абдувахобов Шахзод Холмўмин ўғли, Improverment of Investment Activities in the Service Sector, Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES), Volume:02 Issue:03/2023 (53-58)
4. Абдувахобов Шахзод Холмўмин ўғли, Factors Causing Credit Risks in Commercial Banks and Their Assessment, Journal of Intellectual Property and Human, Volume:02 Issue:05/May-2023 ISSN:2720-6882 (221-226)
5. www.lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
6. www.nbu.uz - O‘zbekiston milliy banki.
7. www.fayllar.org - Keng tarmoqli ma`lumotlar bazasi.